

**O'QUVCHILARDA TALAFFUZI QIYIN TOVUSHLAR USTIDA ISHLASH ORQALI
NUTQIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH
(5-SINF ONA TILI DARSLARI MISOLIDA)**

Eshmurodova Difuza Norboboyevna

Toshkent Amaliy fanlar universiteti O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-kurs magistranti

G'ofir Hamroyev

Ilmiy rahbar. pedagogika fanlari doktori, Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15805311>

Annotatsiya. Ushbu maqola talaffuzi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash orqali nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishni o'rgatadi. Uning qaysi usuli samaradorligi va foydaliligi haqida axborotlar beriladi. O'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi.

Annotation. This article teaches how to develop speech skills by working with students with pronunciation difficulties. It provides information about the effectiveness and usefulness of this method. It forms knowledge and skills in students.

Аннотация. В этой статье рассказывается о том, как развивать речевые навыки, работая с учениками, имеющими трудности с произношением. В ней дается информация об эффективности и полезности этого метода. Он формирует знания и умения у учеников.

Kalit so'z: Tovush, fonetika, grafika, harf, undosh, unli.

Ключевое слово: Звук, фонетика, графика, буква, согласная, гласная.

Keyword: Sound, phonetics, graphics, letter, consonant, vowel.

Til o'rganish jarayoni nafaqat grammatik qoidalarining o'zlashtirilishi, balki to'g'ri talaffuz, nutq ohangi va ifodali so'zlash kabi ko'nikmalarni ham talab qiladi. Ayniqsa, 5-sinf kabi o'rta bosqichda o'quvchilarning og'zaki nutqi shakllanish bosqichida bo'ladi. Shu bois talaffuzi qiyin tovushlar ustida izchil ishlash ularning nutq ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Talaffuzi qiyin tovushlar: aniqlash va sabablari.

Talaffuzi qiyin tovushlar deganda o'quvchilar tomonidan xato aytiladigan yoki farqlanmaydigan tovushlar tushuniladi. Ular quyidagi guruhlariga ajraladi: Shovqinli va jarangsiz undoshlar: masalan, "g" bilan "q", "k" bilan "x", "z" bilan "s".

Burun undoshlari: "n" va "m" tovushlarining chalkashishi.

O'xshash tovushlar almashinuvi: "sh" va "ch", "r" va "l", "o" va "u", "a" va "e" kabilar.

Bu xatoliklar quyidagi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

Nutq apparati rivojining sustligi;

Ijtimoiy muhit va noto'g'ri nutq namunalari ta'siri;

Dialektal ta'sirlar;

O'qituvchining fonetik ishlarga yetarli e'tibor bermasligi.

5-sinf ona tili darslari misolida amaliy yondashuv quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1. Fonetika bo'limiga oid topshiriqlar tahlil qilinadi;
2. Unli va undosh tovushlar talaffuzi ustida ishlanadi;
3. Darslikda berilgan topshiriqlar tahlil qilinadi;

4. To‘g‘ri talaffuzning samarali usullarini ishlab chiqish mumkin.

5-sinf yangi ona tili darsliklarida fonetikani o‘qitishda bugungi o‘quvchilarning tasavvuri, dunyoqarashi, kreativ fikrlashi va mulohaza qilishini inobatga olgan holda rasm va infografikalardan foydalanilgan. Fonetikani o‘qitishda darsliklarning o‘zi kamlik qiladi, shuning uchun qo‘shimcha topshiriqlar, loyiha ishlari va mashqlar o‘qituvchi tomonidan uyga vazifa sifatida berilishi kerak. Bundan tashqari 5-sinf ona tili darsligida undosh tovushlar talaffuzi va imlosi bo‘yicha topshiriqlar o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmlarni yaxshilashga xizmat qiladi.

K. Mavlonova,
S. Qo‘ldosheva, N. Hakimova, M. Siddiqov

Ona tili 5-sinf I qism

Yangi nashr

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan



3. Savat

X tovushi og‘izda (kichik tilida), h esa bo‘g‘izda hosil bo‘ladi.
Ko‘pincha bir bo‘g‘izda e unisidan keyin h harfi keladi: meh-non, deh-qon, eh-tirom, eh-son, eh-tyoq, eh-timol, eh-tiros, eh-tiyot, eh-rom, mehr-roh, meh-ribon, sehr, cheh-ra...
Bir bo‘g‘izda i unisidan keyin ko‘pincha x chuqur til orqali undoshi keladi: ix-tiyor, ix-los, ix-tiro, ix-cham, pix, mix, six...

11. So‘zlarni talaffuz qiling, to‘g‘ri shaklini aniqlang va ko‘chiring.
Tanlovningizni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

So‘zlar	
xodisa	hodisa
harakat	xarakat
har xil	xar hil
sahna	saxna
mehnat	mexnat
tehnika	texnika
xizmat	hizmat
mahsus	maxsus
hilma-hil	xilma-xil

Nuqtalar o‘miga x yoki h harflaridan mosini qo‘yib, matnni daftaringizga ko‘chiring. Imlo lug‘atidan foydalaning.

San‘at inson mehnati, aql-idroki bilan yaratilgan ijod ma‘nolidir. San‘at asarida sha‘ning o‘ziga...os iste‘dodi namoyon bo‘ladi. San‘at dunyoni ma‘naviy anglashning ma‘sus turidir. U keng ma‘noda badiiy qadriyatlar, ulami yaratish va idrok etish jarayonini qamrab oladi. San‘at...o‘ziga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog‘liq...oda rivojlanib kelgan.

Ona tili darslarida quyidagi usullardan foydalanish o‘quvchilarda to‘g‘ri talaffuzni shakllantirishda ijobiy samara beradi:

Tovushli diktantlar va tinglab yozish mashqlari – O‘qituvchi maxsus so‘zlar to‘plamini aytadi, o‘quvchilar eshitib yozadi. Bu nafaqat eshitish, balki tovushlarning farqlanishini o‘rganishga xizmat qiladi.

Artikulyatsion mashqlar – Ayrim tovushlar uchun maxsus mashqlar: til holatini o‘zgartirish, lab harakatlari, havoni to‘g‘ri chiqarish kabi.

She‘riy misollar orqali talaffuzni mashq qilish – Ayniqsa, “ch”, “sh”, “r”, “l” kabi tovushlar qatnashgan she‘rlar yordamida takrorlash.

To‘g‘ri talaffuz musobaqalari – “To‘g‘ri ayt – topib ayt”, “Xato top” kabi o‘yinlar orqali qiziqarli mashq‘ulotlar.

Audio darslar va nutq yozuvlarini eshittirish – O‘quvchilar taniqli diktorlar, aktyorlar, o‘qituvchilar nutqini eshitib, taqlid qiladi.

Bu usullarni tizimli qo‘llash orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

O‘quvchilarning og‘zaki nutqi aniq va ifodali bo‘ladi;

Talaffuzdagi xatoliklar kamayadi;

O'quvchilar mustaqil o'qishda matnni to'g'ri talaffuz bilan o'qiydi;

O'z fikrini og'zaki bayon qilishga bo'lgan ishonchi oshadi.

5-sinf ona tili darslarida talaffuzi qiyin tovushlar ustida muntazam ishlash o'quvchilarning nutqiy rivojida asosiy omillardan biridir. Bu jarayon nafaqat fonetik ko'nikmalarni mustahkamlashga, balki ularning umumiy muloqot madaniyati, ijtimoiy faolligi va o'z fikrini aniq bayon qilish salohiyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois har bir ona tili o'qituvchisi talaffuz ustida ishlashga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'raboyeva Z. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: Ma'naviyat, 2007.
2. Yo'ldosheva D.N. Ona tili ta'limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013.
3. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – T.: O'zbekiston. 1995.
4. Ne'matov H., Gulomov A., Abduraimova M., Qosimova N. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik.– T.: O'qituvchi, 2000.
5. Internet saytlari